

Do'st bilan obod uying!

Barchamizga ma'lumki, mana yarim yildirki, institutga "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti kelib qo'shildi va talaba - yoshlar o'quv amaliyotlarini shu yerda davom ettirib kelmoqda.

Shu kunga qadar institutning boshqa fakultetlari iqtidorli talaba yoshlari singari turli madaniy tadbirdarda ishtirok etib kelishmoqda.

"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti talaba - yoshlari boshqa fakultetlar talabalari bilan yaqindan tanishish va do'stona aloqalarni yanada kuchaytirish maqsadida joriy yilning 23 fevral kuni "Salom irrigatsiya - keldi mexanizatsiya" nomli konsert dasturi uyuştirishdi.

Tadbirga barcha fakultetlar talabalari tashrif buyurishdi va "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti talaba - yoshlari tomonidan namoyish etilgan konsert dasturini miriqib tomosha qilishdi.



Ushbu tadbir yoshlar orasidagi do'stona munosabat hamda mehr - oqibatni yanada kuchaytirgani, shubhasiz.

**"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinnbosari I.Raximov axboroti
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**